



ASQAR MAHKAMNING BADIY MATN YARATISH MAHORATI

Qudratova Muborak Shuxratovna

BuxDU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Anotatsiya: Badiiy matn serqatlamligi ijodkorning mahorat, topqirlik, zukkoligini ko'rsatibgina qolmay, shoirning jamiyat va undagi voqelikka nisbatan fikrlari salmog'idan kelib chiqadi. Asqar Mahkam badiiy-estetik olamini tahlil va talqin qilishda serqatlamlilik muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolamizda zamondoshlari hayotini fojia sifatida qabul qilgan shoir uni matn ortidagi tagma'no orqali in'ikos ettirishini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: badiiy matn, mahorat, badiiy-estetik olam, serqatlamlilik, tagma'no, shamol, yomg'ir, obraz, xarakter.

Аннотация: Богатство художественного текста не только свидетельствует о мастерстве, изобретательности и интеллекте художника, но и исходит из тяжести мыслей поэта об обществе и его действительности. Многослойность важна в анализе и интерпретации художественно-эстетического мира Аскара Махкама. В этой статье мы рассмотрим, как размышляет о ней через смысл текста поэт, принявший жизнь своих современников как трагедию.

Ключевые слова: художественный текст, мастерство, художественно-эстетический мир, сложность, смысл, ветер, дождь, образ, персонаж.

Abstract: The richness of the artistic text not only testifies to the skill, ingenuity and intelligence of the artist, but also comes from the gravity of the poet's thoughts about society and its reality. Multi-layering is important in the analysis and interpretation of the artistic and aesthetic world of Askar Mahkam. In this article we will look at how the poet, who accepted the life of his contemporaries as a tragedy, reflects on it through the meaning of the text.

Key words: literary text, skill, artistic and aesthetic world, complexity, meaning, wind, rain, image, character.

“Ko'chalarda it hurdi tag'in.

Paypasladi zulfini kampir.

Pichirladi novvosin narxin:

“Ikkitaga ketar bari bir...”¹

Shoir “Ko'chalarda it hurdi tag'in” deya xufton va bomdod oralig'idagi vaqtni obrazli tasvirlaydi. Odatda, itlar kechasi bilan daydib, tongga yaqin uyquga ketadi. “tag'in” so'zi esa ma'noga aniqlik kiritishga yordam beradi ya'ni tuni bilan xurgan itlar yana xurmoqda, bu tong otishiga xali vaqt bor degani. “Paypasladi zulfini kampir” – uyg'oq yoki yaqindagina uyg'ongan kampir zulfini paypaslaydi, insonda qorong'ulikda ko'rish qoboliyati yo'q, bu vaqtda birgina teri orqali sezish organimizga tayanamiz. Kampir ham qorong'uda tunda biroz to'zg'igan sochlarini paypaslab tartibga solganday bo'ladi. Badiiy matn qatida yashiringan ma'nolarga tayanadigan bo'lsak, kampir qayergadir otlanganini va uning

¹Асқар Маҳкам. Ҳақ. – Душанбе, «Адиб», 1998. – 56-б



“Ikkitaga ketar bari bir...” deya pichirlaganidan esa novvosni bozorga olib chiqish kerakligini anglaymiz. Demak, bu oilada erkak kishi yo‘q. Ro‘zg‘or tebratish, uning barcha og‘ir-yengili o‘zining zimmasida bo‘lgan kampir iloji boricha qimmatroq sotishni o‘ylardi. She‘rning, shoirning asl maqsadi satrlar qatida yashiringan bo‘ladi. Ilk bandning o‘zidayoq muallifning niyati o‘zining bolaligini yoki biror holatni badiiy tasvirlash emas, balki kampir obrazi misolida zahmatkash, jafokash, qattiqjon buvisini tasvirlash ekanligi ravshanlashadi. Quyidagi “Men buvimni esladim yana” deb boshlanuvi she‘rida ham buvisi Nigorbibi tasvirlanadi.

Devoriga ilingan xoda,
Allaqachon chirib bitibdi.
Ixtiyori endi Xudoda,
Bir oyog‘i go‘rda turibdi.²

Shoir umri oxirlab qolgan buvisining holatini chirib ketgan (sinishga tayyor) xoda misolida tasvirlash va “*Bir oyog‘i go‘rda*” iborasini qo‘llash orqali she‘rning ta‘sir quvvatini yanada oshiradi. Shuningdek, Asqar Mahkam ijodida shamol, yomg‘ir, daraxt, osmon, kuz, oy, tun kabi so‘z obrazlar ham ko‘p uchraydi.

Yana yomg‘ir yog‘ar to‘zg‘ib, tirqirab,
osmon tomog‘ida yaraqlar xanjar...
Bu to‘zonlar aro manzilgoh istab,
umring qay sohilga tashladi langar?...³

“Buvimga yuborilmagan maktub” she‘ridan olingan mazkur parchada bir qarashda shunchaki tabiat hodisasi tasvirlangandek tuyuladi. Ammo yaxlit holda misralar qatiga yashiringan ma‘nolarga diqqat qilsak, yuqorida tahlil qilingan she‘rning mantiqiy davomidek tuyuladi. Odatda, she‘riyatda ko‘p uchraydigan yomg‘ir, kuz, shamol, tun kabi motiv obrazlar lirik qahramonning ruhiyati, ayni vaqtdagi holati va kayfiyatining obrazli ifodalanishidir. “Yomg‘ir” obrazi shoirlar she‘riyatida turfa xil kechinmalarni ifodalaydi. Asqar Mahkam she‘riyatida, asosan, salbiy ma‘nodagi obraz sifatida holatlarni ifodalaydi, ammo mustasno holatlar ham uchrab turadi. “*Yana yomg‘ir yog‘ar to‘zg‘ib, tirqirab, osmon tomog‘ida yaraqlar xanjar...*”, – yana to‘zg‘ib, tirqirab yomg‘ir yog‘ishi va yaraqlagan xanjardek chaqmoq chaqishi oldinda yana qandaydir vahimali g‘alayon, notinchlik yuz berishini sezib turgan lirik qahramon ichki dunyosida yuz berayotgan hadik va qo‘rquvga ishora qiladi.

“*Bu to‘zonlar aro manzilgoh istab, umring qay sohilga tashladi langar?...*” – “*bu to‘zonlar*” deya shoir umri azob-uqubat, og‘ir mehnatda o‘tgan, ro‘shnolik, bir yorug‘ kun ko‘rmagan buvisining qismatini nazarda tutadi. “*Manzilgoh*” barchamizning borar yerimiz, “*sohilga langar tashlash*” esa hayot dengizida, ummonida suzishni to‘xtatish, aniqroq aytganda, rixlat qilish, dunyodan ko‘z yumish nazarda tutiladi. Shoir she‘rlarida ko‘p hollarda yomg‘ir obrazi va ayriliq, yo‘qotish, o‘lim kabi holatlar bilan yonma-yon keladi. Quyida keltirilgan “So‘nggi afsona” she‘rida “oy”, “daryo” va “yomg‘ir” obrazlarining badiiyatiga e‘tibor qaratamiz.

“Oy shohidan sindi qarsillab,
majruh sarboz tutgan shamshirdek.

²Asqar Maḥkam. Ḥaq. – Dušanbe, «Adib», 1998. – 42-6

³Asqar Maḥkam. Ḥaq. – Dušanbe, «Adib», 1998. – 51-6



Sharaqlagan daryolar tindi,
javrab-javrab qolgan kampirdek...”

Oy obrazida qoʻllangan jonlantirish sanʼati, qarsillab singan oyni majruh sarboz tutgan shamshirga oʻxshatish va misradagi oʻzaro hamohanglik sheʼrning estetik taʼsir quvvatini kutilmagan darajada oshiradi. Agar oy shamshirga oʻxshasa, demak, u toʻlib ulgurmagan yangi oy. Kitobxon aynan shu misrani qayta oʻqib, tag maʼnosini anglashni istaydi. Oy va boshqa jonsiz narsalarga nisbatan tashhis sanʼatining qoʻllanishi uning asosiy, yashirin maʼnosiga ishora qiladi, oy timsolida hali qarilik gashtini surmagan kimgadir ishora bor va bu ishoraning maʼnosi oʻsha kimningdir dunyodan oʻtganini anglatadi. Keyingi misralardagi “sharaqlagan daryolar” tinishini “javrab-javrab qolgan kampirdek...” deya tashbih qilishning zamirida koʻp soʻzlagan, ammo hech kim tinglamagan, soʻzlari shamollarga sovrilgan insonning achinarli qismatini anglatadi.

“Yomgʻir quydi xomush koʻllarga,
sohillarni girdoba siqdi.
Mening izim oʻchgan izlarga
chuvalchanglar oʻrmalab chiqdi”.⁴

Mazkur parchada sof tabiat hodisasi tasvirlangan. Yuqorida taʼkidlaganimizdek yomgʻir oʻlim holati bilan birga obrazli maʼno ifodalamoqda. “Mening izim oʻchgan izlarga chuvalchanglar oʻrmalab chiqdi” misrasi qarsillab singan “oy”, sharaqlagan “daryo”, obrazlari misolida muallif ichki meni tavirlanganini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асқар Маҳкам. Ҳақ. – Душанбе, «Адиб», 1998. – 112-б
2. Shuhratovna Q. M. The World of Themes of Sirojiddin Sayyid's Poems.
3. Кудратова М. Ш. ОЛИМ ШАРАФИДДИНОВ-УЧЕНЬЙ НАВАИВЕД //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 241-243.
4. Qudratova M. A DEVELOPMENT OF NAVOI STUDIES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
5. Shuxratovna Q. M. ASQAR MANKAM SHEʼRIYATIDA ISHQ TALQINI //The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 25-28.
6. Qudratova M. S. HOZIRGI ZAMON OZBEK SHERIYATIDA ASKAR MANKAM IJODI //Zamonaviy fan va taʼlim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 206-210.

⁴Асқар Маҳкам. Ҳақ. – Душанбе, «Адиб», 1998. – 112-б